

PSYCHOPHYSIOLOGICAL AND LINGUISTIC FOUNDATIONS OF THE THEORETICAL STUDY OF SPEECH DEFECTS

Ergasheva Nozima Adilovna

Furqat tumani 1- DMTT LOGOPEDI

Abstract

This article reflects the psychophysiological and linguistic foundations of the theoretical study of speech defects, the importance of knowledge of the properties, functions, structure and development of language in special pedagogy, the importance of language as a necessary condition for thinking, and the importance of language in the development of society.

Keywords. Linguistics, psychophysiology, speech, vocabulary, psychological state, research, dysfunction, brain, social factor, speech process.

Introduction

NUTQ KAMCHILIKLARINI NAZARIY JIHATDAN O'RGANISHNING PSIXOFIZIOLOGIK VA LINGVISTIK ASOSLARI

Ergasheva Nozima Adilovna

Furqat tumani 1- DMTT LOGOPEDI

Annotatsiya

Ushbu maqolada nutq kamchiliklarini nazariy jihatdan o'rganishning psixofiziologik va lingvistik asoslari, tilning xususiyatlari, funktsiyasi, strukturasi va rivojlanish yo'llarini bilish maxsus pedagogikada muhim o'rin tutishi, til – tafakkurning zarur shartlaridanligi, jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etishi haqidagi fikrlar o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar. Lingvistika, psixofiziologiya, nutq, lu'gat, psixologik holat, tadqiqot, disfunktsiya, bosh miya, ihtimoiy omil, nutqiy jarayon.

Bolaning til tizimini egallash borasidagi barcha yutuqlarini muloqotni ta'minlovchi mazmunli, keng yoyilgan fikr sifatida qaraladigan ravon nutq o'z ichiga oladi. U

mazmunliligi, mantiqliligi va izchilligi bilan ajralib turadi. Ravon nutq bola til boyligini qanchalik o'zlashtirganligini ko'rsatkichi hisoblanadi, u bolaning aqlan, estelik, emotsional jihatdan rivojlanish darajasini aks ettiradi. Til qobiliyatlarini shakllantirish, bir tomondan, nerv-psixologik mexanizmlarining yetilganligi bilan, o'zga tomondan esa, ijtimoiy ehtiyoj lar bilan bog'liq. Til-bu belgilar sistemasi, til uchun ikki turdagi faoliyat adekvat hisoblanadi- umumlashtirish va anglash. Til nutq orqali tushuntiriladi va tarqaladi.

Tilning xususiyatlari, funktsiyasi, strukturasi va rivojlanish yo'llarini bilish maxsus pedagogikada muhim o'rin tutadi, til – tafakkurning zarur shartlaridan biri bo'lib, jamiyatning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Tilni bilish insonni jamiyatning bir a'zosi sifatida tan olishning bir yo'nalishidir. Har qanday buzilish bolani atrof – olam haqidagi bilimlarida yaqqol namoyon bo'ladi, uning nutqini shakllanishida va ijtimoiylashuviga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Psixolingvistika va lingvistikaning muammolari maxsus pedagogika nazarida quyidagilarga bo'linadi: Birinchidan, lingvistik va psixolingvistik munosabatlar birligi muammosi. Lingvistlar tomonidan til murakkab ta'limiy jarayon sifatida qaraladi. Indivud til bilan uni ifodalovchi predmet bilan to'qnash keladi, til bunda tashqi me'yor sifatida yuzaga chiqadi. Bu bolaning psixolingvistik imkoniyatlarini har bir bosqichini hisobga olgan holda namoyon bo'ladi va bola nutqining rivojlanganligi bilan yakulanadi.

Ikkinchi muhim muammolardan biri, bu bola nutqining rivojlanishi. Til qobiliyatning ontogenezi – bu murakkab hodisa bo'lib, bir tomondan, kattalarning bola bilan muloqati, ikkinchi tomondan, bolaning predmetli bilish faoliyatining rivojlanish jarayoni.

Psixolingvistlarning fikricha, nutqning rivojlanishi, bu eng avvalo, hamma muloqot qositalarining rivojlanishidir. Bola oldida aniq muloqot vositasini tanlash turadi. Bunda bola oldida kattalar tili va ularning tashkil etilishi ko'rinadi. Lekin bola bu vositlarni huddi kattalardek qo'llay olmaydi. U so'zlarni predmetning tegishliligiga asoslanib, talaffuz qilishga harakat qiladi, shularga tayangan holda bolada nutqiy qobiliyat shakllanib boradi. U buni psixologik, fiziologik va sotsial omillarning ta'siriga qaramasdan, avval, bir qadar muvoffaqiyatli bajaradi. Keyinchalik yangi muloqot ehtiyojlari tug'ilgandan keyin, murakkabroq mexanizmlar shakllana boshlaydi.

Uchinchi muammo, ontogenezda simvolik belgilarning rivojlanmaganligi, L.Vigotskiyning va boshqa mashhur psixologlarning fikricha, bu muammoga til xususiyatlari: tafakkur va nutqning rivojlanishi bilan bog'liqligini sabab qilib ko'rsatadilar. Agar tafakkur va nutqning ildizlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak, ularning rivojlanishi parallel bormasligini ko'rishimiz mumkin: nutqning rivojlangunga qadar intellektning rivojlanmaganligi yoki intellektning rivojlanganiga qadar nutqning rivojlanmaganligini kuzatish mumkin. Ma'lum bir vaqtgacha nutq va tafakkur bir – biriga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi.

Maxsus pedagogikaning muhim to'rtinchi muammosi tilning o'ziga xosligini tahlil qilish. Maxsus pedagogika shaxsning ijtimoiylashuvi va nutqiy aspektlarning ijtimoiy munosabatlari bilan bog'liqdir. Bu guruhga nutqiy faoliyatning shunday turlari kiradi: shaxslarni katta guruhlar bilan munosabatga kirishuvi (sotsial guruhlar, jamiyat bilan)

Maxsus pedagogikaning muammalaridan yana biri me'yoriy nutq rivojlanishidan chetga chiqishi. Nutq buzilishlari, nutq buzilishlari sifatida psixofiziologik mexanizmlarning shakllanmaganligi, buzilishlari sifatida qaraladi, ular til xususiyatlarini, nutqni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Nutq buzilishlarida nutq nuqsoniga ega shaxs yordamga muhtoj bo'ladi. Nutq buzilishlarida muloqot qila olish imkoniyati bor yoki yo'qligi haqida muammo tug'iladi. Psixolingvistik nuqtai nazardan, quyidagi nutqiy buzilishlarni farqlash mumkin:

-shaxs buzilishlari bilan bog'liq patopsixologik nutq buzilishlar, ong va oliy psixik funktsiyalar bilan bog'liq (masalan, shizofreniya);

-bosh miyaning lokal jarohatlanishi oqibatida yuzaga keladigan nutq buzilishlari (afaziya);

-tug'ma yoki orttirilgan sensor sistema buzilishlari bilan bog'liq nutq nuqsonlari (karlik) ;

- aqli zaiflik yoki ruhiy rivojlanishi sustlashishi oqibatida yuzaga keladigan nutqiy nuqsonlar;

-nutqning motor rejalashtirilishining nuqsonlari yoki nutqiy motorikaning tarqalish programmasini buzilishi.

Maktabgacha tarbiya muassasasida nutq tizimiga o'rgatish haqida gap ketganda tilning nutqiy tizimiga katta e'tibor berish nazarda tutiladi. Til tizimi 3 ta bir- biriga aloqador printsiptan tashkil topgan. Sintagmatik - bir darajadagi birliklar munosabati - bola tomonidan konkret sharoitda egallanadi. Pragmatik -

umumlashtirishning turli darajasida soʻzlar munosabati - ularni egallash uchun nutqiy materiallarni yetarli darajada tanlash va nutqiy kuzatishlarni oʻtkazish talab etiladi.

Xulosa qilib aytganda, nutqning grammatik tizimini egallash paradigmatic va sintagmatic aloqalarini egallashni koʻzda tutadi. Nutqning grammatik tizimini shakllantirishda dastlab anglanmagan xolda morfemalarni soʻzning leksik yoki grammatik maʼnosi bilan bogʻliqligi amalga oshiriladi. SHu asosida nutqiy umumlashtirish (morfologik va sintaktik) yuzaga keladi. Faqatgina tilning maʼlum nutqiy qonun qoidalarini egallagan bolagina toʻgʻri va aniq gaplar tuza oladi. Tilning grammatik qonun qoidalarini bilmaslik, soʻzning morfologik tizimi va gapning sintaktik strukturasi buzib tuzilishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Madinaxan, M., & Odinaxan, R. (2023). STAGES OF UPBRINGING AND DEVELOPMENT OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN IN THE FAMILY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 33-37.
2. Maxmudova, M., & Xasanova, I. (2023). DIZARTRIYA NUTQ BUZILISHI TOVUSHNING TALAFFUZ TOMONIDAN BUZILISHI SIFATIDA. Interpretation and researches, 1.
3. Madinaxan, M., & Iroda, K. (2023). SPECIFIC FEATURES OF DYSARTHRIA SPEECH DISORDER IN CHILDREN WITH SPEECH DEFICIENCY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 16, 42-45.
4. Saule, Z., & Sobirxonovna, M. M. (2023). DISRUPTION OF SPEECH, WHICH IS NOT VISIBLE IN RETARDATION OF MENTAL DEVELOPMENT. Academia Science Repository, 4, 46-50.
5. Madinaxan, M. (2023). THE THEORETICAL SIGNIFICANCE OF THE DEVELOPMENT OF THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF THE TUTOR OF A SPECIAL EDUCATIONAL INSTITUTION. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 353-356.
6. Shukhratovich, M. K. (2023). WAYS TO OVERCOME SPEECH DEFECTS IN THE EDUCATION OF PARALYZED CHILDREN. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(11), 348-352.



7. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar va o'smirlarni ijtimoiy reabilitatsiyasida oilaning roli. Confrencea, 12(12), 338-342.
8. Xurshid, M. (2023). Rivojlanishida nuqsoni mavjud bolalar oilalarida oilaviy munosabatlarning rivojlanishi davrlari. Confrencea, 12(12), 332-337.
9. Xurshid, M. (2023). Maxsus yordamga muxtoj bolalar oilalari bilan olib boriladigan psixoterapevtik ish. Confrencea, 12(12), 326-331.
10. Khurshid, M. (2023). Views Of Eastern Thinkers On The Education Of Children With Special Needs. JournalNX, 9(11), 210-215.